


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № _____
2023-yil _____ - _____

XATTOTLIK VA KITOBAT SAN'ATI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Magistratura mutaxassisligi:	70230301– Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O'zbek tili)

Toshkent-2023

Semestr	Fan/modul kodi XKS 2-3 11	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024									
				Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
							Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
2	Xattotlik va kitobat san'ati	5	4	60	30	0	30	-	90	150			
3	Xattotlik va kitobat san'ati	6	6	90	30	0	60	-	90	180			
	Jami:	11	10	150	60	0	90	-	180	330			

2.	<p>1. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xattotlik va kitobat san'ati fani bo'yicha bilimlarning nazariy asoslarini, xat turlari bo'yicha asosiy tugushcha va kategoriyalarini, kitobat qonun qoidalari, grafik o'lchamlari hamda tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi – Fanning vazifasi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, xat va kitobatga va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda fanga nisbatan ilmiy dunyo qarashini shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali talabani ayni paytdagi va kelajak hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalari haqida tasavvur tug'dirish, o'quv jarayonida kitobning o'ziga xos tarixiy yo'lini ko'rsatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">I SEMESTR</p> <p>1-mavzu. Yozuv tarixi</p> <p>Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv qurollari va materiallari: tosh, teri, papirus, yog'och, qog'oz, qalam, dovot. Piktografik yozuvlar.</p> <p>2-mavzu. Markaziy Osiyoda eng qadimgi yozuv madaniyati taraqqiyot</p>
----	--

<p>tamoyillari</p> <p>Buxtariy (oromiy), avesto, xorazmiy, sug'd, runiy, uyg'ur, monaviy (sug'dmonaviy, turkmonaviy) yozuvlari.</p> <p>3-mavzu. Turkiy-runik yozuvdagi matnlar</p> <p>Ushbu matnlarning milliy tarixi, milliy adabiyot rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.</p> <p>4-mavzu. Uyg'ur yozuvdagi matnlar</p> <p>Ushbu yozuvning Movorounnahr, Xuroson va Sharqiy Turkistonda qo'llanilishi.</p> <p>5-mavzu. Arab yozuvdagi matnlar</p> <p>Arab yozuvining shakllanishi, xat turlari. Arab yozuvining tarqalishi, barqororlashuvi. Bu yozuvning turli tillardagi alifbosi, turlari</p> <p>6-mavzu. Bir shakldagi so'zlarning turlicha o'qilishi</p> <p>Arab, fors tillaridagi so'zlarning qo'llanilishi. Arab yozuvdagi matnlarda Qur'on o'yatlari va hadislar talqini</p> <p>7-mavzu. Xatti Boburiy</p> <p>Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan xat turi. "Xatti Boburiy"- o'zbek yozma matni taraqqiyotining muhim bosqichi. "Xatti Boburiy"da bitilgan Qur'on.</p> <p>8-mavzu. Abjad hisobi</p> <p>Arab yozuvdagi manbaalar va abjad hisobi. Arab yozuvdagi har bir harfning muayyan raqamni anglatishi. Abjad asosida yuzaga kelgan adabiy janrlar va badiiy san'atlar: muammo, tarix.</p> <p>9-mavzu. Arab xat turlari</p> <p>Arab tilidagi xat turlari va ularning nomlanishi. Nasx xati, ixrochisi, rivojlanish bosqichlari. Nasx xatining bugungi kundagi ahamiyati.</p> <p>10-mavzu. Markaziy Osiy xattotlari</p> <p>Markaziy Osiyoda ixtiro qilingan arab xat turlari va ixtirochi xattotlar hayoti bilan tanishish. Xat turlarini bir-biridan ajrata bilish.</p> <p style="text-align: center;">II SEMESTR</p>
--

11-mavzu. Mir Ali Tabriziyning xattotlik san'atiga qo'shgan hissasi

Mir Ali Tabriziyning xattotlik san'atiga qo'shgan hissasi. Ijodkor va ixtirochi sifidagi faoliyati

12-mavzu. Farg'ona xattotlik maktabi

Qo'qon xattotlik maktabi uzoqlari. Xattot amir Muhammad Alixon yozgan xatlardan mazkur

13-mavzu. xattotlik maktabi an'analari

Buxoro xattotlik maktabi Nasxi buxoriy xati. Nasta'liq xati ta'limida Buxoro xattotlari tomonidan ishlab chiqilgan usullar

14-mavzu. Toshkent xattotlik maktabi

Bugungi kundagi toshkentlik xattotlar an'anasi davomchilari bo'lgan xattotlar.

15-mavzu. Mir Ali Tabriziyning xattotlik san'atiga qo'shgan hissasi

Mir Ali Tabriziyning xattotlik san'atiga qo'shgan hissasi. Ijodkor va ixtirochi sifidagi faoliyati

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

I SEMESTR

1. Qadimgi arab tili alifbosi. Ko'fiy xati.
2. Arab hijoiy (alfavit) harflarining alohida shaklda yozilishi, grafik o'lchamlarini amaliy tarzda belgilab ko'rsatish. Arab xat turlarining eng qadimgi ma'qaliy xati haqida
3. Nasx xati asosida Ba.ta.sa. yo harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi.
4. Jim.ha. xa harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi.
5. Sin va shin harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi.
6. Sod va zod harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi.
7. To va zo harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi.
8. Kof harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi
9. Lom harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi

10.Mim harfining boshqa harflar bilan qo'shilib yozilish qoidalari

II SEMESTR

- 11.Hoyi havas harfining boshqa harflar bilan qo'shilib yozilish qoidalari
- 12.Ho, xo va jim harflarining boshqa harflar bilan qo'shilib yozilishining qoidalari
- 13.Ayn va g'ayn harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi Ko'rgazmali qurollar tayyorlash
- 14.Fo va qof harflarining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi
- 15.Suls xatining grafik o'lchovlari haqida to'garak qatnashchilariga ma'ruza
- 16.Nun harfining yetkachi bo'lgan holida boshq harflar bilan murakkab (qo'shilib) yozilishi
- 17.Arab va eski o'zbek yozuvi tarixi
- 18.Yozuvning inson faoliyatidagi o'rni.
- 19.3 harfdan iborat so'zlarni yozish qoidalari
- 20.xattotlik harflari haqida yozilgan baytlardan misollar yozish
- 21.Alisher Navoiy asarlaridan foydalanib namunalar ko'chirish
- 22.Nasta'liq xatida xattotlik qoidalarini o'rganish
- 23.Nasta'liq xatini o'rganishda grafik o'lchov va Buxor ravyasiyada mashqlar yozish
- 24.Nasta'liq xatini o'rganish uchun: harflarning alohida ko'rinishini yozish.
- 25.Ba, jim, sin harflarini nasta'liq xati asosida yozish.
- 26.Sod, to, fa, qof harflarini murakkab holda yozish tariblari va qoidalari.
- 27.Kof, ayn, nun harflarini murakkab holda yozish tariblari va qoidalari.
- 28.Mim, lom, hayi havas harflarini murakkab holda yozish tariblari va qoidalari.
- 29.Ustodi avval kitobida keltirilgan qisqa hikmatlardan namunalar ko'chirish
- 30.Turkiy guliston asaridan namunalar ko'chirish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

I SEMESTR

1. Markaziy Osiyoda eng qadimgi yozuv madaniyati taraqqiyot tamoyillari
2. Turkiy-runik yozuvdagi matnlar
3. Nastaliq xati
4. Uyg'ur yozuvdagi matnlar
5. Arab yozuvdagi matnlar
6. Bir shakldagi so'zlarning turlicha o'qilishi
7. Xatti Boburiy
8. Abjad hisobi

9. Arab xat turlari
10. Ko'fiy xati
11. Rayhoniyy xati
12. Devoniyy xati
13. Markaziy Osiy xattotlari
14. Suls xatining ixtiro qilinishi
15. Markaziy Osiyoda eng qadimgi yozuv madaniyati taraqqiyot tamoyillari

II SEMESTR

16. Manbalarda xat turlari
17. XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida O'rta Osiyodagi xattotlik rivoji.
18. Xatti Boburiy, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan xat turi
19. Abjad hisobi, Arab yozuvidagi manbaalar va abjad hisobi
20. Xattotning qurollari.
21. Xattotning qo'lyozma ko'chirish paytidagi jarayon
22. Qog'oz ishlab chiqarishning qadimgi uslublari.
23. Xattotlik va kitobat tarixini o'rganishning manfaatlari
24. Xattot va kitoblarga qo'yilgan me'yoriy talablar
25. Manbalarni o'rganishda xat turlarini

3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Xattotlik tarixi, xat turlari va ularning o'ziga xos matn tarixi tushunchasining nazariy masalalari yuzasidan talaba analitik mushohada va muhim xulosalar chiqara olish haqida *bilimga* ega bo'lishi;

- mavjud matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish, o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalarini matnshunoslik masalalari bilan aloqadorlikda o'rganish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi;

- matn tarixini Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqitirish, egallangan bilim va malakani umumma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish *malakaga* ega bo'lishi lozim.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash.

5. VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-

sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan **Xattotlik va kitobat san'ati** fanidan **2-3-semestrda 330 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan**, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanih kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga **11 kredit beriladi**.

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi*.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

5 (a'lo) baho - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

4 (yaxshi) baho - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

3 (qoniqarli) baho - talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

2 (qoniqarsiz) baho - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

6. Asosiy adabiyotlar:

1. Zufarov T. Xat ta'limi. -T.: Meriyus, 2010. -275 b.
2. O'qish kitobi (Eski o'zbek yozuvi namunalari. Tuzuvchi L.Xalilov). -T.: "O'qituvchi", 1994. -262 b.
3. Buxarbayev Yo. O'rta Osiyo xattotligi devoniyy yozuvi tarixi va taraqqiyoti. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Magistrlik dissertatsiya, UDK 003.077.09(575) 2020.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdulg'afur Razzoq Buxoriy Husnixat durdonalari (Nasta'liq xati qoidalari). Toshkent. Movarounnahr, 2008. 7,5 b.t.
2. Abdulg'afur Razzoq Buxoriy Husnixat durdonalari (Nasta'liq xati qoidalari). Toshkent. Movarounnahr, 2008. 7,5 b.t.
3. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent. Fan, 1971. 10.b.t.
4. Isoqxon. Jame' ul-xututi Isoqxon //Toshbosmaliv. № 621. 59.
5. Muhammad Sharifjon Sadri Ziyo. Majmua. // Qo'lyozma. O'z EA SHI. 2193/XXIII. 255a
6. Muhammad Sharifjon Sadri Ziyo. Ta'kiratul xattotiy.// Qo'lyozma. O'z EA SHI. -№1304.
7. Muhammad Tohir ibn Abdulqodir Kurdiy, Tarix al-xat al-arabiyy va

adabihi. Maktaba al-Hilal. 1939 y.

8. Muhammad Tahur Kurdiy. Husnud –duaba fiy ma varada fil xatti val kitoba. Misr. Mustafa saniy nashriyoti. 1938y.

9. O'ktam Sultonov. Xatti Boburiy. Maqola, Moziydan sado jumali 3-4(19-20) 2003. O'zbekiston nashriyoti.

10. Shodmon Voxidov, Zoir Choriev. Sadr-i Ziya i ego biblioteka. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. 11,0 b.t.

11. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". –Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B.430

12. Alimov U., Mansurov A., Nuriddinov J., Mardonov I., Yo'ldoshxo'jaev H., Xo'jam A. "Xazrati Imom". – Toshkent: Movarounnahr, 2013. B.239

13. A'zamxo'jaev S., Islomov Z.M. "100 Markaziy Osiyo tarixiy yodgorliklari". – Toshkent: Yangi nashr nashriyoti, 2011. B.76

14. Babadjanov B. Rustamov U. "Shohi Zinda me'moriy majmuasining bitiklari (matnlar, tarjimalar)". Samarqand: Samarqand nashriyoti, 2015. B.80

15. Habibullayev N. "O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish tarixi". T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 1992. – B.96

16. Бухарбаев Ё.М. Бухоро хаттоғлик мактабининг китобат санъати ривожига кўшган хиссаси. Битирув диплом иши. – Т.: Тошкент ислом институти. 2013й.

17. "Islom ensiklopediyasi". Z.Husniddinov tahriri ostida. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.313

Axborot manbalari

18. <http://www.kutubxona.uz>

19. <http://www.literature.uz>

20. <http://www.ziynet.uz>

21. <http://www.alishernavoijy.uz>

7. Fan dasturi Universitet Kengashning 2023-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ul:**

Buxarbayev Y – "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasida o'qituvchisi.

9. **Taqrizchilar:**

Jo'rayev J. - Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi filologiya fanlari doktori.

Shukurova Z – ToshDO'TAU, "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasida dotsenti, PhD